



## RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMDA INTERFAOL METODLARNING SAMARADORLIGI

**Meliyeva Dilfuza O'ralovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

**Ahmadova Qurbonoy**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakultiteti, 3BT-S-21guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17336745>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rivojlantiruvchi ta'lim jarayonida interfaol metodlarning samaradorligi masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada interfaol metodlar orqali o'quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishi, mustaqil fikrlash va kreativ tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirishdagi ahamiyati muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** rivojlantiruvchi ta'lim, interfaol metod, pedagogik texnologiya, kreativlik, mustaqil fikrlash, dars samaradorligi, o'quvchi faoliyati, motivatsiya, o'quv jarayoni, ta'lim sifatini oshirish.

**Abstract:** This article examines the effectiveness of interactive methods in developmental education. The study analyzes how interactive methods engage students actively in the learning process, enhance independent thinking and creativity. Moreover, the role of interactive methods in improving learning quality and increasing students' motivation is discussed.

**Keywords:** developmental education, interactive method, pedagogical technology, creativity, independent thinking, lesson effectiveness, student activity, motivation, learning process, improving education quality.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается эффективность интерактивных методов в развивающем обучении. Анализируется, как интерактивные методы способствуют активному участию учащихся в учебном процессе, развитию самостоятельного мышления и креативности. Также обсуждается роль интерактивных методов в повышении качества обучения и мотивации учащихся.

**Ключевые слова:** развивающее обучение, интерактивный метод, педагогическая технология, креативность, самостоятельное мышление, эффективность урока, активность учащихся, мотивация, учебный процесс, повышение качества образования.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashi rivojlantiruvchi ta'limning samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va tafakkurini shakllantirish asosiy maqsad bo'lib, bu jarayonni qiziqarli va interfaol qilish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Rivojlantiruvchi ta'limda interfaol metodlar o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi, ularning kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda mustaqil bilim olishga yo'naltiradi. Shuningdek, interfaol metodlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, guruhda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va o'rganish jarayonini qiziqarli qilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, rivojlantiruvchi ta'limda interfaol metodlarning samaradorligini



o'rganish va amaliyotga tatbiq etish bugungi ta'lim jarayonida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Interfaol metodlarning ta'lim jarayonidagi roli, interfaol metodlar — o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlovchi pedagogik texnologiyalar majmui hisoblanadi. Ushbu metodlar o'quvchilarning bilim olish jarayoniga faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va kreativ tafakkurini shakllantiradi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida interfaol metodlardan samarali foydalanish orqali o'quvchilar darsga qiziqish uyg'otiladi va bilimlarni mustahkamlash jarayoni osonlashadi. Rivojlantiruvchi ta'lim jarayonida keng qo'llaniladigan interfaol metodlar quyidagilardan iborat: Aqliy hujum (Brainstorming) – o'quvchilarning turli fikrlarini tezkor tarzda yig'ish va tahlil qilish orqali muammolarga yechim topish. Rol o'yinlari – o'quvchilarni turli vaziyatlarda muayyan rollarni bajarishga jalb qilish orqali ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Diskussiya va bahslar – o'quvchilarning fikr almashishi, argumentlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish. Vizual diagrammalar va klasterlar – ma'lumotlarni tizimlashtirish va mantiqiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mini-loyihalar – kichik guruhlar bo'yicha vazifalarni bajarish, o'quvchilarning hamkorlik va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. Shu o'rinda interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari haqidaham so'z yuutib o'tish maqsadga muvofiq sanaladi. Interfaol metodlarning bir qancha afzalliklari mavjud. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin. O'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi, bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantiradi, guruhda ishlash va hamkorlik ko'nikmalarini oshiradi, o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi va ta'lim jarayonini qiziqarli qiladi. Shuningdek axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) interfaol metodlarning samaradorligini oshiradi. Uning samaradorlikni oshirish jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi. Masalan: Multimedia darsliklar orqali mavzularni vizual va interfaol tarzda tushuntirish, onlayn testlar va viktorinalar orqali bilimlarni mustahkamlash, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar yordamida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish. Interfaol metodlarni rivojlantiruvchi ta'limda qo'llashning amaliy imkoniyatlari ham katta ahamiyatga ega. Interfaol metodlarni samarali qo'llash uchun o'qituvchilar quyidagi bir qancha ishlarni amalga oshirishi lozim hisoblanadi. Masalan: Darsni interfaol shaklda rejalashtirish va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, texnologik vositalardan samarali foydalanish va kreativ topshiriqlar tayyorlash, o'quvchilarning individual qiziqishlarini inobatga olib, guruhdagi faoliyatni muvofiqlashtirish, dars jarayonida o'quvchilarning izlanish va tanqidiy fikrlashini rag'batlantirish.

Xulosa qilib aytganda, rivojlantiruvchi ta'limda interfaol metodlar o'quvchilarning bilim olish jarayonida faolligini oshirish, mustaqil va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda darsni qiziqarli va samarali qilishda muhim vosita hisoblanadi. Aqliy hujum, rol o'yinlari, diskussiya, vizual diagrammalar va mini-loyihalar kabi interfaol metodlar o'quvchilarning tafakkurini kengaytiradi, ularni amaliyotga yo'naltiradi va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiya qilish interfaol metodlarning samaradorligini oshiradi, dars jarayonini yanada interfaol va motivatsion qiladi. Natijada, interfaol metodlardan oqilona foydalanish rivojlantiruvchi ta'lim jarayonining sifatini oshirishga, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy



tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxslar sifatida shakllantirishga yordam beradi.

### **Adabiyotlar ro'yhati:**

1. Azizxo'jayeva, N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2020.
2. To'raqulov, X. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Ziyayeva, D. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Meliyeva, D. O. (2025). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MUSTAQIL ISHLASH KO'NIKMALARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI. Inter education & global study, (2), 320-328.
5. Мелиева, Д. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishning davlat miqyosidagi ahamiyati. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 1106-1108.
6. Polat, E.S. Novye pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sisteme obrazovaniya. – Moskva: Akademiya, 2016.
7. Prensky, M. Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning. – London: SAGE Publications, 2010.
8. Trilling, B., Fadel, Ch. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. – San Francisco: Jossey-Bass, 2009.
9. Fullan, M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2015..